

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**ABDRIMOV ZARIFBOY ERKINOVICH**

**XORAZMSHOH – MA'MUNIYLAR SULOLASI DAVRIDA  
XORAZMNING SIYOSIY, IJTIMOIIY – IQTISODIY VA MADANIY  
AHVOLI**

**07.00.01 — O'zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Abdrimov Zarifboy Erkinovich**

Хоразмшох – Ма’мунилар sulolasi davrida Хоразмning siyosiy, ijtimoiy –  
iqtisodiy va madaniy ahvoli.....3

**Абдримов Зарибой Эркинович**

Политическое, социально-экономическое и культурное положение Хорезма  
в период династии Хорезмшахов-Маъмунидов.....29

**Abdrimov Zarifboy Erkinovich**

Political, socio-economic and cultural attitudes of Khorezm under the  
Khorezmshah-Ma’munid dynasty.....55

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of publications .....59

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**ABDRIMOV ZARIFBOY ERKINOVICH**

**XORAZMSHOH – MA'MUNIYLAR SULOLASI DAVRIDA  
XORAZMNING SIYOSIY, IJTIMOIIY – IQTISODIY VA MADANIY  
AHVOLI**

**07.00.01 — O'zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2024.2.PhD/Tar 1874 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdalov Umidbek Matniyazovich,**  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Sulaymanov Salamat Arepbaevich,**  
tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Masharipov Qudrat Yuldashevich,**  
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent.

**Yetakchi tashkilot:** **Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedogogika instituti.**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning 2025 yil "11" oktabre soat 15.00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 371 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-49; e-mail [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "23" 09 kuni tarqatildi.  
(2025 yil "23" 09 dagi 14 raqamli reestr bayonnomasi.)



*Kaput*

**M.A.Karlibaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

*X.M.*  
**X.M.Otegenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

*B.A.*  
**B.A.Koshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyo bo'yicha jahon xalqlari davlatchiligi tarixida muayyan sulolalar tarixini yangi asoslarda o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, bu sulolalar orasida nafaqat davlatlar siyosiy taraqqiyotida, balki jahon xalqlari madaniy taraqqiyotida ham o'z izini qoldirgan sulolalar ham mavjud. Jumladan, Xorazm vohasida X asr oxiri – XI asr boshlarida hukmronlik qilgan Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi tomonidan tashkil qilingan “Dorul hikma va ulamo” – Xorazm Ma'mun akademiyasining jahon miqyosidagi madaniy taraqqiyotdagi ahamiyati dunyo miqyosida ma'lum voqelik hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, bu sulola tarixini o'rganish, nafaqat davlatchilik tarixini, balki, birinchi Sharq Uyg'onish davri madaniy jarayonlarining boshlang'ich davrlarini, shart-sharoitlari va ahamiyatini to'liq ochib berishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon xalqlari madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasining taxtga kelishi sabablari, shart - sharoitlarini, bu madaniy taraqqiyotning asosiy omili bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, va nihoyat bu sulolaning o'zbek davlatchiligi rivojlanishidagi o'ziga xos tarixiy o'rnini aniqlash borasida jahonning ko'plab ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, Ma'muniylar sulolasi hukmdorlari faoliyati, sulola davrida vohada kechgan siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni aniqlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshohlar nomi bilan boshqargan sulolalar davlat sifatida qadimgi davrdan XIII asr o'rtalariga qadar hukmronlik qilgan hamda ilmiy nuqtai – nazardan olganda hozircha tarixda bunday sulolalardan to'rttasi ma'lum. Jumladan: Afrig'iylar – Vazamariylar (305—995 yillar); Ma'muniylar (995—1017 yillar); Oltintoshlar (1017 — 1034 yillar) va nihoyat Anushteginiylar (1077—1231 yillar) sulolalari hisoblanadi<sup>1</sup>. Bular ichida, Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm diyorida barcha fanlarning rivoji yani madaniyat taraqqiyoti bilan birgalikda mamlakat iqtisodiyoti ham tez sur'atlar bilan taraqqiy qilganligini yozma manbalar ma'lumotlari to'la tasdiqlaydi. Ammo, mazkur manbalarda bu sulola vakillarining hukmronlik davri siyosiy voqealari va umuman sulola vakillarining kelib chiqishi va taxtga kelishi shart – sharoitlari, hukmronlik davri siyosiy voqealari masalalari haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Shu jihatdan olganda, mazkur muammoni ochib berishda yozma manbalar ma'lumotlari yetarli bo'lmasdan, arxeologik va ayniqsa, numizmatik manbalarni ham tadqiqot doirasiga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF – 60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni<sup>2</sup>, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 apreldagi “Xorazm Ma'mun Akademiyasining

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2005.Б.491.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF – 60-son “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi Farmoni. [Elektron resurs] // <http://lex.uz/pages/getpage.aspx?last id=5841063>

faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar” to‘g‘risidagi №-211 sonli qarori hamda yana shu kabi boshqa bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatib o‘tilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Tadqiqot ishi mavzusi sifatida hanuzgacha maxsus o‘rganilmay kelinayotgan Xorazmshoh – Ma‘muniylar sulolasi davrida Xorazmda siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar masalasining olinishi mavzuning dolzarbligini va zaruratini belgilaydi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajariladi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyat, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi” dasturi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiyaning Davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Xorazm Ma‘mun akademiyasi ilmiy - tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan. Tadqiqotning xronologik doirasi mavzuning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi va X asr oxiridan – XI asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** X asr oxiri - XI asr boshlarida, ya‘ni Xorazmshoh-Ma‘muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy, etnik, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jarayonlarning o‘rganilishi yuzasidan fikr yuritishdan oldin, bu masalaning manbalarda qay darajada aks etganligiga e‘tibor qaratish lozim.

Xorazmning Xorazmshoh-Ma‘muniylar sulolasi davri tarixini yorituvchi manbalarni va tarixshunoslik tadqiqotlarini bir necha turga va davrlarga bo‘lgan holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Xususan ularni:

1. X - XIII asr boshlaridagi arab-fors manbalari;
2. XX asr boshlaridan to hozirgacha bo‘lgan davrlardagi rus-sovet va xorij tadqiqotchilari tadqiqotlari;
3. XX asr 90-yillaridan to hozirgacha bo‘lgan davrlar O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Tadqiqotchilarning bir necha avlodi mazkur mavzuni yoritish uchun bebaho ma‘lumotlarni to‘plaganlarini e‘tirof etish kerak. Biroq mualliflardan hech biri o‘z oldiga IX-X asrlarda Xorazm siyosiy tarixini maxsus o‘rganish hamda to‘plangan noyob ma‘lumotlarni izchil va muntazam ravishda umumlashtirish vazifasini qo‘ymaganligini ta‘kidlash lozim.

Umuman, mazkur mavzu alohida tadqiqot obyekti sifatida keng miqyosda o‘rganilmagan va umumlashtirilmagan va bu tarix fanida o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Mavzuning manbaviy o‘rganilishi va tarixiy tadqiqotlarda aks etishi masalasiga tadqiqotning birinchi bobida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**Tadqiqot obyekti sifatida** Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi belgilangan.

**Tadqiqot predmetini** Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi aks etgan turli tillardagi yozma manbalar, arxeologik va tarixiy tadqiqotlar ma'lumotlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning xronologik doirasi** X - XI asr boshlarini qamrab oladi va bu Xorazm tarixining eng kam o'rganilgan sahifalardan biri hisoblanadi. Zero, X - XI asr boshlarida Xorazmda kechgan siyosiy jarayonlar jahon tarixida katta ahamiyat kasb etganligi tanlangan mavzuni tadqiq etish uchun ushbu davriy chegarani belgilashni taqozo etadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yozma manbalar hamda eng so'nggi tarixshunoslik tadqiqotlari ma'lumotlarini har tomonlama o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi hukmronligi o'rnatilishi arafasida Xorazm vohasida kechgan siyosiy jarayonlarni hamda voha ijtimoiy-madaniy hayotini tahlil qilish;

poytaxti Gurganj bo'lgan Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasining Xorazm vohasida hukmronligining o'rnatilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash;

Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy jarayonlarni yozma manbalar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida tadqiq etish;

Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, ma'muniylar davri Xorazmning tashqi aloqalarini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari asosida tahlil qilish;

Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida tashkil qilingan Ma'mun akademiyasi faoliyati va uning nafaqat Sharq, balki jahon mamlakatlari ma'naviy-madaniy taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli yondashuv, tarixiy ma'lumotlarni qiyosiy va tanqidiy o'rganish, umumlashtirish va tarixiy-qiyosiy tahlil qilish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ma'muniylar sulolasining etnik kelib chiqishi borasidagi mavjud qarashlar ilmiy tahlil qilinib, bu boradagi tarix fanida shakllangan turli qarashlarning tarixiy haqiqatga mos kelmasligi hamda ularning etnik jihatdan arab qavmlaridan bo'lganligi haqiqatga ko'proq yaqinligi isbotlangan;

Ma'muniylar sulolasining taxtga kelishi borasidagi mavjud qarashlar ham izchil ilmiy tahlil qilinib, Xorazmda Ma'muniylar sulolasining hokimiyatga kelishi ilgarigi qarashlar bo'yicha X asrning 90-yillariga emas, balki, hozirda mavjud yozma manbalar ma'lumotlari asosida X asrning o'rtalariga to'g'ri kelishi dalillangan;

Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi davrida savdo munosabatlari ko'lamida ancha keng bo'lganligi, Buyuk Ipak yo'lining deyarli hamma yo'nalishlarida savdo munosabatlari qizg'in olib borilganligi, ayniqsa Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i Ma'muniylar olib borgan iqtisodiy siyosat natijasida yanada gullab – yashaganligi so'nggi arxeologik va numizmatik manbalar asosida ochib berilgan;

jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Ma'mun akademiyasida faqat qadimgi yunon madaniyatini tiklash asosidagi ilmiy natijalarga erishilganligi borasidagi sovet davri qarashlari tarixiy haqiqatga to'g'ri kelmasligi, akademiyada faoliyat olib borgan olimlarning aksari qismi asarlari fanning turli sohalarida taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilganligi, fanning yangi sohalarining vujudga kelishiga turtki bo'lganligi, qolaversa, bu yerda olib borilgan tadqiqotlar natijalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Xorazmshoh – Ma'muniylar tarixi bo'yicha manbashunoslik va tarixshunoslik ma'lumotlarini tarixiy nuqtai nazaridan talqin qilish, ulardan Ma'muniylar sulolasi davri siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi masalalarining tub mohiyatini ochib berish jarayonida foydalanish orqali tarixiy – qiyosiy tahlil tamoyillari asosida yangi ilmiy qarashlar ilgari surilgan;

tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar hamda unda ilgari surilgan taklif, tavsiyalardan harbiy oliy va o'rta ta'lim muassasalarining o'quv ishlar rejasida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda, shuningdek, muzey fondlari eksponatlarini yanada kengaytirishga va yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan hamda umumlashtirilgan ilmiy ma'lumotlarni o'quv jarayoniga tadbiiq etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tarix fanida e'tirof etilgan usullar qo'llanganligi, asl manbalar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy yondashuvlardan foydalanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixini qiyosiy-tarixiy usullardan foydalangan holda olingan nazariy xulosalar, Xorazm Ma'mun akademiyasining jahon madaniy taraqqiyotida tutgan o'rnini xolisona yoritish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada umumlashtirilgan ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi, davlatchilik tarixini yozishda, oliy o'quv yurti talabalari uchun yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yozishda, shuningdek, virtual muzeylar ekspozitsiyalarini yaratishda hamda tarixiy-madaniy merosni targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazmda siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar mavzusi bo'yicha chiqarilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazmda siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar tarixiga oid yozma manbalarda va mavzuga oid tarixshunoslik tadqiqotlarida aks etgan Xorazm vohasi iqtisodiyoti asosini tashkil

etgan savdo yo'llari yo'nalishlari, Xorazm vohasi etnik tarkibi va etnografiyasi, Ma'muniylar davri Xorazm adabiy muhiti va san'ati xususidagi ma'lumotlardan, Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi tomonidan amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda foydalanilgan. (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2024 yildagi 01-32/13-08-24-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalardan xalq tafakkurida tarixiy ongning shakllanishi va mustahkamlanishiga, mamlakatimiz tarixini o'rganishga qaratilgan ilmiy ko'nikma va yondashuvlar bo'yicha malakaga ega bo'lishga, tarix fani sohasidagi bilimlarini oshirishga imkon yaratgan;

Ma'muniylar sulolasining etnik kelib chiqishi borasidagi mavjud qarashlar ilmiy tahlil qilinib, bu boradagi tarix fanida shakllangan turli qarashlarning tarixiy haqiqatga mos kelmasligi hamda Ma'muniylar sulolasining taxtga kelishi borasidagi mavjud qarashlar qayta ko'rib chiqish zarurati borasidagi xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 16-bandi "Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, boy ma'naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ'ib qilish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024 yil 24 sentabr 10/91-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur materiallar, xalqimizning ma'naviy ildizlarini mustahkamlashda va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xizmat qilmoqda;

Ma'muniylar sulolasi davridagi Xorazm vohasi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi borasidagi aniq ilmiy mulohazalar, fikrlar, xulosalar va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Aslida qanday" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanildi ("O'zbekiston tarixi" telekanalining 2024 yil 27 sentabrdagi 06-28-898-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Ma'muniylar sulolasi davridagi Xorazm vohasi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga oid ma'lumotlar tarix fanini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi, xalqimizning ma'naviy ildizlarini mustahkamlashda va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yhati hamda ilovadan iborat. Ishning tadqiqot qismi 132 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslanib, ishning maqsadi hamda vazifalari, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi - **“Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid yozma manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari tahlili”** deb nomlangan. Unda Xorazmshoh – Ma'muniylarning kelib chiqishi, taxtga o'tirishi va bu voqealar bilan bog'liq siyosiy jarayonlar aks etgan yozma manbalar hamda tarixshunoslik tadqiqotlari tahlil qilingan. Bu bobning *“Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid yozma manbalar tahlili”* deb nomlangan birinchi paragrafida Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid turli tillardagi yozma manbalar qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, bu tahlil asosida yakuniy xulosalar chiqarishga harakat qilingan.

X asr oxiri - XI asr boshlarida, ya'ni Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm vohasida kechgan siyosiy, etnik, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jarayonlarning o'rganilishi yuzasidan fikr yuritishdan oldin, bu masalaning manbalarda qay darajada aks etganligiga e'tibor qaratish lozim.

Arab-fors manbalari asosan arab bosqinidan keyingi davr Xorazmning siyosiy tarixi haqida ma'lumotlar beradi. Tadqiqot mavzusiga oid arab – fors manbalari ham o'z mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linib, birinchi guruh manbalarida Ma'muniylar sulolasi davrining ko'proq siyosiy hayoti masalalari o'z aksini topgani holda, ikkinchi guruh manbalarida asosan shu davr ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jarayonlari ko'proq aks etgan. Jumladan, Xorazm vohasida X asr oxiri – XI asr boshlarida kechgan siyosiy jarayonlar masalasi asosan, arab tilida bitilgan buyuk vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniyning *“Osor ul-boqiya al-qurun al holiya”* (*“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”*)<sup>4</sup>, Abu Nasr al-Utbiyning *“Tarixi Yaminiy”*<sup>5</sup>, Ibn al-Asirning *“Al-Komil fit-tarix”* (*“Mukammal tarix”*)<sup>6</sup> va qisman Xorazmdagi X-XI asrlardagi siyosiy jarayonlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar As-Saolibiyning *“Latoif ul-maorif”* (*“Ajoyib ma'lumotlar”*)<sup>7</sup>, as-Sam'oniyning *“Kitob al-ansob”* (*“Mashhur kishilar haqida kitob”*)<sup>8</sup>, Yoqut al-

<sup>4</sup>Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Том 1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968. – 486 б.

<sup>5</sup> Извлечения из «Китаб ал-Йамини» Абу Насра ал-Утби по Каирскому изданию 1286 г., с комментариями шейха ал-Манини // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI – XV вв.) (далее: МИТТ) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. – М.-Л.: Наука, 1939. – С. 223-227; унабуһақдақаранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского завоевания. – Сочинения. Т. I. – М.: «Наука», 1963. – С.202, 225, 323-324, 330, 336-339, 341, 590, 591; унақаранг: Ал-Утби. Тарих-и Йамини / Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. Перевод с персидского М.А. Салахетдиновой; [Отв. ред. Б.А. Ахмедов]. – Ташкент: Фан, 1988. – С.24-57.

<sup>6</sup> Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // МИТТ, т. 1. — М.-Л., 1939, с. 358, 361-364, 367, 371-373, 383-384.

<sup>7</sup> As-Sa' alibi. Lotaifo-i-ma' arif. Ed. M. J. Goejr. Bibliotheca Geographorum Arabicorum (BGA). Lugduni: Batavorum, 1867; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. 1. – Т.: «Наука», 1963. – 763 с.; Абдуллаев И. Абу Мансур Абдулмалик Ас-Саолибий. (Масъул мухаррир М. М. Хайруллаев). – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1992. – 94б.

<sup>8</sup> Ас-Сам'ани Абу Са'д. Китоб ал-ансаб // МИТТ, т. 1. — М.-Л., 1939, с 327, 331, 334, 337-339, 340-343.

Hamaviyning “Mu’jam ul-udabo” (“Adiblar lug‘ati”) yoki “Irshod al-arib il ma’rifat al-adib” (“Adiblarning bilimiga ko‘rsatma”)<sup>9</sup>, Jamol al-Qarshiyning “Al-mulhaqat bi-s-suroh” (“Suroh lug‘atiga ilovalar”)<sup>10</sup> kabi asarlarida mavjud.

Yuqoridagi yozma manbalar ichida Utbiy va Ibn al-Asir asarlari boshqa manbalarga nisbatan Xorazmshoh-Ma’uniylar sulolasi tarixi borasida ko‘proq ma’lumotlar beradi. Jumladan, ikkala manbada ham 995 yilda Ma’uniylarning Xorazmda taxtga kelishlari voqeasi batafsilroq ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga mazkur manbalarda bir-birini to‘ldiruvchi ma’lumotlar ham mavjud. Masalan, Utbiyda keltirilgan Afrig‘iy Xorazmshoh Abu Abdullohning Xuroson noibi, Abu Ali Simjuriyni hibsga olish sababi keltirilib o‘tilgani holda, Ibn al-Asirda bu voqea hech sababi keltirilmasdan bayon qilib o‘tilgan<sup>11</sup>. Shu bilan birga Xazar xoqonligida Urganch amirlari ta’sirida musulmonchilikni qabul qilishi voqeasi faqat Ibn al-Asirda mavjud.

Xorazmning Arab xalifaligi tarkibida bo‘lishi va islom dini yoyilgan hudud sifatida qaragan ko‘pgina savdogar va sayyohlar bu yerga kelgan vaqtlarida juda ko‘p va tafsilotlarga boy ma’lumotlarni to‘plashga harakat qilganlar. Xususan, Xorazm vohasida X-XI asrlarda ro‘y bergan siyosiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqidagi ma’lumotlarni o‘z asarlariga kiritgan tarixchi va geograflar qatorida Ibn Fadlanning “Risola”<sup>12</sup>, Al-Istahriyning “Kitob al masolik va-l-ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yo‘llar haqida kitob”)<sup>13</sup>, Al-Maqdisiyning “Ahsan-at-taqosim fi maorifat al-aqolim” (“Iqlimlarni o‘rganish uchun eng yaxshi qo‘llanma”)<sup>14</sup>, Ibn Havkalning “Kitob ul-masolik va-l-mamolik” (“Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob”)<sup>15</sup> kabi noyob asarlarini qayd qilish mumkin.

---

<sup>9</sup> Йакут ал-Хамави. Иршад ал ариб ила ма’рифат ал-адиб / Пер. с арабского Б. Вахабовой. Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. Ташкент: Фан, 1988. – С.63-76; The Irshād al-'Arīb ila ma'rifat Al-Adīb, or Dictionary of Learned Men of Yāqūt. Edited by D. S. Margoliouth, D.Litt, Laudian Professor of Arabic in the University of Oxford, and printed for the Trustees of the E. J. W. Gibb Memorial. Vol. iii, pt. i, containing part of the letter, pp. xv + 219. Leyden, Brill; London, Luzac & Co.; 1910. – 558 pp.

<sup>10</sup> Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с-сурах. Введение, перевод с арабского-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш. Х. Вохидова, Б. Б. Аминова. История Казахстана в персидских источниках./ Упоминание о монгольских хаканах и изложение их истории. Т. I. – Алматы. Дайк-Пресс. 2005. – С. 25, 49, 55-56, 68, 93, 95, 110, 116, 119-120, 127 уана қаранг: Джамал ал-Карши. ал-Мулхакат би-с-сурах. Перевод с арабского и примечения А. Саидова. Душанбе: Ирфон, 2006. – 268 с.

<sup>11</sup> Ал-Утби. Тарих-и Йамини / Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. Перевод с персидского М.А. Салахетдиновой; [Отв. ред. Б.А. Ахмедов]. – Ташкент: Фан, 1988. – С.24-57; Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории /Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – С. 161.

<sup>12</sup> Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу. Перевод и коммент. А.П.Ковалевского. Под ред. акад. И.Р.Крачковского. – М.-Л., 1939. – 256 с.; Изд.2-е. – Харьков, 1956. – 347 с.;Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука,1939.– С.155-164.

<sup>13</sup> Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик// Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского.– М. – Л.: Наука, 1939. – С.176-181.

<sup>14</sup> Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи ма’рифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука,1939. – С.185-189.

<sup>15</sup> Ибн Хавкал // МИТТ, т. 1. – М. Л., 1939, с. 183-186; Бетгер Е.К. Извлечение из книги «Пути и страны» Абул-Касыма Ибн Хаукаля // Труды САГУ. Новая Серия. Вып. 11. – Т.: Изд. САГУ, 1957 – С.13-40.

Bu manbalar ichida Al-Maqdisiyning asari boshqalaridan ma'lumotlarining ko'pligi hamda aniqligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa uning Xorazm vohasining qo'shni hududlar bilan savdo aloqalari borasidagi ma'lumotlari ayni Ma'muniylar davriga to'g'ri keladi.

Xorazmning X-XI asrlardagi siyosiy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar X-XIII asrlarda fors tilida yozilgan manbalarda ham aks ettirilgan. Ular orasida eng qimmatlisi va muhimlari — noma'lum muallif qalamiga mansub “Hudud al-olam”<sup>16</sup>, Mahmud Gardiziyning “Zayn ul-axbor” (“Tarixlar bezagi”)<sup>17</sup>, Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi Mas'udiy”<sup>18</sup>, Nizomi Aruzi Samarqandiy<sup>19</sup> asarlari hisoblanadi.

Xullas, yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan barcha manbalarda X-XI asrlarda Xorazm Arab xalifaligining chekka o'lkasidagi bir hudud sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shuning uchun ikkinchi guruh manbalari ham huddi birinchi guruh manbalari kabi ma'lumotlari juda qisqaligi va bahsli ekanligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, yuqorida ta'kidlanganidek, arab-fors tilidagi manbalarda Xorazmning X-XI asrlardagi siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lsada, ular mavzuimiz yuzasidan to'laqonli va aniq ma'lumotlarni bera olmaydi.

Bu bobning “Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixi tarixshunosligi masalalari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid XIX asrdan to hozirgi kungacha olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlari tahlil qilingan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari V.V.Grigoryev<sup>20</sup>, N.I.Veselovskiy<sup>21</sup>, V.V.Bartold<sup>22</sup> kabi rus olim va o'lkashunoslar ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator nodir asarlarni yaratdilar. Ularning asarlarida Xorazmning X-XI asrlar tarixini tanqidiy o'rganishga intilish yaqqol sezilib turibdi.

XIX asrning 2 - yarmida rus olimlari bilan bir qatorda O'rta Osiyoga Yevropa olimlarining ham e'tibori kuchaydi. 1875 yilda Leydenda Amudaryo haqida kitob nashr qildirgan golland sharqshunosi de-Gue ham X – XI asr boshlari Xorazm tarixi haqida ma'lumotlar bergan<sup>23</sup>. Eron va Islom ensiklopediyalari

<sup>16</sup> Худуд ул-алем // МИТТ, т. 1. – М.-Л., 1939. – С.209-210, 216-217.

<sup>17</sup> Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.228-229; Бартольд В.В. Извлечения из сочинения Гардизи «Зайн ал-ахбар» // Сочинения, т. 8. – М.: «Наука», 1973 – С. 23–62; Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – 146 с.

<sup>18</sup> Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. – М.: Наука, 1969. – 1009 с.

<sup>19</sup> Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы. – Москва: Изд-во вост. лит., 1963. – 173 с.

<sup>20</sup> Григорьев В.В. Описание Хивинского ханства и дорога туда из Сарайчиковой крепости // ЗРГО. – СПб. 1861. – №2. – С. 105-138.

<sup>21</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб. 1877. – 364 с.

<sup>22</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху мангольского нашествия // Соч., т. 1. – М., 1963. – С.197-211; Yanauning: Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVI в. // Соч., т. 3. – 123 с.; Yanauning: К истории орошения Туркестана // Соч., т. 3. – 174 с.vaboshqatadqiqotlari.

<sup>23</sup> De Goeje M.J. Das alte Bett des Oxsus Amu-darja. – Leyden. 1875. – 132 p.

(inglizcha nashrlarida) hamda musulmon sulolalari tarixiga oid kitoblarda ham Ma'muniylar sulolasi tarixiga qisqa to'xtalib o'tilgan<sup>24</sup>.

Markaziy Osiyo davlatlari tarixini va ayniqsa Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi tarixini o'rganishda taniqli boshqird siyosiy arbobi Ahmad Zaki Validiy To'g'onning merosi katta qiziqish uyg'otmoqda<sup>25</sup>.

XX asrning 20-30-yillarida Xorazmning o'rta asrlar tarixini chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida yangi davr boshlandi. Zero shu yillardan boshlab, Xorazm tarixini arxeologik, etnografik va numizmatik jihatdan o'rganish ishlari olib borila boshlandi. Jumladan, 1928-1929 yillarda A.Yu.Yakubovskiy rahbarligidagi ekspeditsiya Urganch (Ko'hna Urganch), Xo'jayli shahri yaqinidagi Mizdahqonqal'ada arxeologik izlanishlar olib bordi. Ekspeditsiya a'zolari mazkur shaharlardagi barcha muammolarni kompleks ravishda to'la o'rganishga erisha olmasada, ilk bor Urganch va Mizdahqon shaharlaridan topilgan buyumlarga qarab, Xorazmning Ma'muniylar davri tarixini ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'lindi<sup>26</sup>.

Xorazmning ilk o'rta asrlar qatlamlari 1934 yilda M.V.Voevodskiy boshliq arxeologik ekspeditsiya tekshirgan Zamahshar xarobalaridan<sup>27</sup>, 1936-1937 yillarda Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi olimlar guruhi o'rgangan Guldursunqal'a va Norinjonqal'a xarobalaridan ham X-XI asrlar qatlamlari topib o'rganildi<sup>28</sup>.

Xorazmning X-XI asrlardagi etno-siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy tarixini o'rganish borasidagi izchil tadqiqotlarning boshlanishi 1937 yilda tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir<sup>29</sup>.

Ilk o'rta asrlar Xorazm siyosiy tarixini arxeologik, etnografik va numizmatik jihatdan o'rganishning keyingi bosqichi 1958 yildan, ya'ni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali tarkibidagi "Arxeologiya" bo'limining faoliyati bilan bog'liqdir.

Qoraqalpoq arxeologlarining e'tibori X – XI asrlar qatlamiga ega Xorazm shaharlariga qaratilib, ikkala qirg'oq Xorazm hududlarida ham tadqiqotlar olib borildi<sup>30</sup>.

<sup>24</sup>Bosworth Clifford Edmund. The Islamic dynasties, a chronological and genealogical handbook. – Edinburgh: University Press, 1967. – 245 p.; yana qarang: БосвортК.Э.Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П. А. Грязневича. – М.: Наука, 1971. – 324 с.

<sup>25</sup>AhmetZekiVelidiTogan. Umumî Türk tarihine giriş. Cild I: en eski devirlerden 16. asra kadar. 3. Baskı. – İstanbul: Enderun Kitabevi, 1981. – S.189-190; yana uning: Hârizm // İslam Ansiklopedisi. C. V/1. –İstanbul, 1987. – S. 243.

<sup>26</sup> Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан // «Записки коллегии востоковедов», т. V. – Л., 1930; с. 551-591; yana uning: РазвалиныУргенча // ИГАИМК, вып. 2, т. VI. –Л., 1930.

<sup>27</sup> Voyevodsky M. A Summary Report of a Khwarizm Expedition. ВАИАА, 1938, № 3.

<sup>28</sup> J.Gulom. Otmush izlari // "Guliston", 1937, № 4.

<sup>29</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948. – С.33,156,157,168-170; yana uning: По следам древнорезмийской цивилизации. –М.-Л., 1948, с. 308-315; yana uning: По древним дельтам Окса и Яксарта. – М., 1962, с. 246-295; Древности Южного Хорезма / Отв. ред. М.А. Итина; АН СССР. Ин-т этнографии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. – М.: Наука, 1991. – 287 с.: ил.; Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; Т. 1-16. – Коллектив авторов; Итина М.А. Поселение Якре-Парсан 2 (раскопки 1958–1959 гг.) // Материалы Хорезмской экспедиции. — М., 1963. – Вып. 6. – С. 107–128: ил.

<sup>30</sup> Гудкова А.В., Ягодин В.Н. Археологические исследования в правобережной части дельты Амударьи в 1958-1959 гг. // МХЭ, вып. 6. — М., 1963; Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части Приаральской дельты Амударьи // МХЭ, вып. 7. – М., 1963; Ягодин В.Н. К Изучению топографии и хронологии древнего Миздахкана // В кн. История, археология и этнография Средней Азии. — М., 1968; Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. — Т.: «ФАН». 1970.

1961 yildan boshlab qoraqalpoq arxeologlari turli yillarda o'ngqirg'oq Xorazmning ilk o'rta asrlar davriga oid Kerdor madaniyati yodgorliklarini o'rgandilar. Jumladan, 1961, 1967, 1997, 2000, 2002 va 2008-2009 yillarda bu madaniyatga oid To'qqal'a (Darson), Krantau (Vardarag) va Hayvonqal'a (Kerdor) yodgorliklari o'rganilib, Ma'muniylar sulolasi davri madaniy qatlamlari ham aniqlangan. Mazkur tadqiqotlar natijasi o'laroq VIII-XI asrlarda Kerder madaniyatida afrig'iy-somoniylar (ma'muniylar) bosqichi madaniy qatlamlari shakllanib, endilikda bu madaniyat yodgorliklari chapqirg'oq Xorazm hududlarida ham yuzaga kelganligi aniqlangan<sup>31</sup>.

1963, 1968-1971 yillar davomida arxeolog Yu.P.Manilov rahbarligidagi Qoraqalpoq arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Katqal'a, Abu Muslimqal'a, Janpiqqal'a yodgorliklarini o'rgandilar<sup>32</sup>.

Bu davrda arxeologik tadqiqotlar bilan birga numizmatik tadqiqotlar ham olib borilgan<sup>33</sup>. Numizmatika bo'yicha eng ko'p ish olib borgan tadqiqotchi bu B.I.Vaynberg hisoblanadi<sup>34</sup>. Uning Xorazm tangashunosligiga bag'ishlangan asosiy fundamental asarida Ma'muniylar davri tangalari keltirilmagan bo'lsada, bu sulolaning Xorazmni birlashtirish arafasidagi vohadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Xorazmning X-XI asrlar tarixini numizmatik jihatdan o'rganish ishiga R.Reva, V.Kalinin, A.Ataxo'jayev<sup>35</sup>, E.Goncharov<sup>36</sup> kabi tadqiqotchilarning asarlari Ma'muniylar sulolasi tarixini keng miqyosda o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Xorazmshoh-Ma'muniylar sulolasi tarixi turli mavzularga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Jumladan, V.P.Darkevich,

<sup>31</sup> Ягодин В.Н. Городище Хайван-кала – раннесредневековый Кердер / Археологические исследования в Каракалпакии. – Т.: «Фан», 1981. – С.78-102; Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части Приаральской дельты Амударьи // МХЭ. Вып.7. 1963. – С.73-79; Ягодин В.Н. Некоторые вопросы исторической географии Приаральской дельты Амударьи в VII-XIV в. // В кн.: Археология Приаралья. Вып.III. – Т.: «Фан», 1986, с.73-109; Мамбетуллаев М.М., Юсупов О.Ж., Турманов Ж.Т. Исследования городища Хайван-кала в 1997-2008 и 2009 гг. (итоги и проблемы) // Вестник Каракалпакского Государственного университета имени Бердаха, 2010. Т.1-2 С 39-46; Ходжаниязов Г.Х. Фортификация Хорезма в эпоху Мамунидов и Ануштегинидов (конец X – нач. XIII вв) // История и археология Турана. №1. 2013. – С.69-82; Сапаров Н., Каландаров У. Раскопки на городища Хайван-кала (Кердер) // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2015-2017 йиллар 11-сон. – Б. 237-240.

<sup>32</sup> Маньлов Ю.П. К изучению городища Кят // «Вестник» ККФ АН УзССР, 1966, № 2; Маньлов Ю.П., Ходжайов Т.К. Средневековый мавзолей Джанпык-кала // «Вестник» ККФ АН Уз ССР, 1972, № 2; Маньлов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. — Т., 1973.

<sup>33</sup> Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. Энциклопедический справочник: Древность и ранее средневековье. – Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», 1999. С.141.

<sup>34</sup> Вайнберг Б.И. Монеты Древнего Хорезма. — М.: «Наука», 1977. — 194 с., с илл. Yana uning: Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э.-VIII в.н.э. – М.: ИВЛ РАН, 1999. – 332 с.

<sup>35</sup> Рева Р., Калинин В., Атаходжаев А. Нумизматические дополнения к истории Хорезма X в. // Материалы XVI Всероссийской нумизматической конференции. – Санкт-Петербург: Издательство Государственного Эрмитажа. 2011. – С. 58- 60; Атаходжаев А. Денежное обращение и чудеса Хорезма // История и археология Турана. №5. – Самарканд, 2020. – С.332-356.

<sup>36</sup> Гончаров Е. Ю., Настич В. Н. Монеты сырдарьинских огузов IX в. // Тюркологический сборник. 2011-2012: Политическая и этнокультурная история тюркских народов и государств. М.: Наука, Вост. лит. 2013. С. 80-91; yanaqarang: Гончаров Е., Настич В. Новооткрытый чекан государства Сырдарьинских огузов // Международная научная конференция “РАСМИР: Восточная нумизматика – 2011”. – Киев, 2013. – С 26–30; Гончаров Е. Ю., Армарчук Е.А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме // Вестник института востоковедения РАН, 2 (12). – Москва, 2020. – С. 160-174.

R.M.Valeev, M.E.Muxammadiyev, T.S.Nunan, R.K.Kovalev, M.T.Kalinina, R.D.Goldina, A.A.Burxanov, M.Kalmenov, A.Bijanov, Q.Y.Masharipov, O.Sh.Kdirniyazov tadqiqotlarida Ma'muniylar sulolasi tarixining turli masalalari tahlil qilingan<sup>37</sup>.

Bu boradagi eng so'nggi tadqiqotlarni turkiyalik tadqiqotchi A.O'zbayraktar<sup>38</sup>, turkmanistonlik L.A.Allaberdiyeva<sup>39</sup> hamda Ma'mun Akademiyasi tadqiqotchisi Sh.Ismoilovlar<sup>40</sup> olib bormoqdalar.

Umuman, mazkur mavzu alohida tadqiqot obyekti sifatida keng miqyosda o'rganilmagan va umumlashtirilmagan va bu tarix fanida o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“X – XI asr boshlari Xorazm vohasida kechgan siyosiy jarayonlar, Ma'muniylar sulolasining vujudga kelishi va taraqqiyoti”** deb nomlanib, uning *“X – XI asr boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Ma'muniylar sulolasining kelib chiqishi muammosi”* nomli birinchi paragrafida X – XI asr boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar

<sup>37</sup> Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. Произведения восточной торевтикина территории европейской части СССР и Зауралья// М.: Наука, 1976. – 199 с.; Валеев Р.М. Развитие торговли Поволжья и Приуралья в эпоху средневековья (Основные тенденции и закономерности развития торговли и денежно-весовых систем Волжской Булгарии и Золотой Орды). Saarbrücken: LambertAcademicPublishing, 2012. 479 с.; Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле в VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.29-34; Нунан Т.С. Торговля Волжской Булгарии с саманидской Средней Азией в X в. // Археология, история, нумизматика, этнография Восточной Европы. Сборник статей памяти проф. И.В.Дубова / под ред. А. Н. Кирпичникова, В. Н. Седых. СПб.: Издательство С.–Петербургского университета, 2004. С.256–311; Нунан Т.С., Ковалев Р.К. Большой клад дирхемов начала эпохи викингов, найденный в 2000 г. в Козельске Калужской области// Археологические вести. 2003. Т. 10. С. 149–163; Kovalev R.K. Commerce and Caravan Routes Along the Northern Silk Road (Sixth-Ninth Centuries). Part I: The Western Sector // АЕМА. 2005. Vol. 14.Р. 92–104; Голдина Р.Д. (глав. ред.) Взаимодействие народов Евразии в эпоху великого переселения народов Ижевск: Удмуртский государственный университет, 2006. – 440 с.; Калменов М., Бижанова А. Торгово-водные пути Хорезмского оазиса в древности/ Материалы Международной научно-практической конференции «Город и городская культура Южного Приаралья: история и перспектива», посвященной 85-летию В.Н.Ягодина – Нукус – 2017 – С. 105-107; Руденко К.А. Тюркский мир и Волго-Камье в XI-XIV вв. Изделия аскизского круга в Среднем Поволжье. Исследование и каталог. – Казань: Заман, 2001. – 256 с.; Бурханов А.А. Города и поселения Дарганского оазиса левобережья Амударьи в системе древних и средневековых тюрково-караванных путей (по материалам археологических исследований в Лебапском велаяте Туркменистана) // Вестник Новосибирского государственного университета. – 2015. – Т. 14. – Вып. 7. – С. 172-183; yanauning: Амуйль-Чарджуй на трассе Великого шелкового пути (краткий историко-археологический очерк развития столичного центра Лебапского региона) // Известия Алтайского госуниверситета. Серия “История, политология”. 4/3. Барнаул, Изд-во Алтайского гос. университета, 2008. С. 27–32 (1,2 п.л.); yanauning: Древний и средневековый Лебап в системе евразийских культур и государств (историко-археологический и географический очерк среднеамударьинского региона). Казань, 2007. (Научные редакторы – Э.С.Кульпин-Губайдуллин, Ю.С.Худяков). 40 с. (2,5 п.л.); Masharipov Q.Yu. Xorazmning Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X – XV асрлар). – Урганч: УрДУ нашриёти, 2016. – 152 б.

<sup>38</sup> Özbayraktar Aykut. Hârezm'de me'mûni devleti'nin kuruluşu. Ortaçağ araştırmaları dergisi, 6/2 (Aralık 2023). – S. 723-738; yana uning: Hârezm'in Gazneliler tarafından işğali ve Me'mûni Devletinin yıkılışı. Külliye, [Türkiye Cumhuriyeti'nin 100. Yılı ÖzelSayısı], 2023. – S.296-314;

<sup>39</sup> Аллабердиева Л. А. Значение средневековых исторических источников в изучении истории Мамунидов // StudiaHumanitatis. 2024. № 2. Международный электронный научный журнал // <https://st-hum.ru/content/allaberdieva-la-znachenie-srednevekovyh-istoricheskikh-istochnikov-v-izuchenii-istorii>; yana uning: Значение исторических источников X века в изучении истории Хорезма // StudiaHumanitatis. 2023. № 2. Международный электронный научный журнал // <https://st-hum.ru/content/allaberdieva-la-znachenie-istoricheskikh-istochnikov-x-veka-v-izuchenii-istorii-horezma>

<sup>40</sup> Ismoilov Sh. Ma'muniylar sulolasining hokimiyatga kelishi va etnogenez masalasi // Ma'mun Science, I jild, №1. 2023. – В. 376-382; yana uning: Ismoilov Sh. Ma'muniy Xorazmshohlar davlati. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2024. – 296 б.

hamda Ma'muniylar sulolasi vakillarining qachon va qay yo'sinda taxtga kelganligi, ularning qaysi etnik guruhga mansubligi masalalari, yozma manbalar va numizmatik tadqiqotlar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ochib berishga harakat qilingan.

Yozma manbalarda, Ma'muniylar sulolasi vakillarining qachon va qay yo'sinda taxtga kelganligi borasida ma'lumotlar keltirilmagan. Shu jihatdan olganda, mazkur muammoni ochib berishda arxeologik va ayniqsa, numizmatik manbalarni tadqiqot doirasiga jalb qilish juda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, bu muammoni tahlil qilishdan oldin Gurganch shahrining taraqqiyoti, uning X asrga kelib nafaqat Xorazmning, balki, butun musulmon Sharqidagi eng yirik shaharlardan biriga aylanishi jarayonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Chunonchi yuqoridagi Tabariy ko'rsatib o'tgan VIII asrdagi 3 ta shahar o'rniga, Istaxriy X asr boshlarida Xorazmda shaharlar soni endi o'ntaga yetganligini ko'rsatadi<sup>41</sup>. 985 yilda esa, Maqdisiyning yozishicha, Xorazmdagi shaharlarning soni o'ttiz ikkitaga yetgan<sup>42</sup>. Savdo shaharlari ichida eng yirigi shubhasiz Gurganch shahri hisoblanib, bu shahar nafaqat Movarounnahr va islom Sharqini, balki Hindiston va Xitoy hududlarini ham Sharqiy Yevropa, Janubiy Sibir va ko'chmanchilar dunyosi bilan bog'lovchi xalqa vazifasini bajargan.

X asr Xorazm tarixiga oid eng dastlabki manba bu mashhur arab sayyohi Ibn Fadlanning ma'lumotlari bo'lib, u 924 – 926 yillarda Arab xalifasining Volga Bulg'oriyasiga yuborilgan elchiligi tarkibida bo'lib, elchilik Xorazm orqali o'tgan. Ibn Fadlan Xorazmga kelgan payti ikkala Xorazm hukmdori haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Jumladan, uning davrida Janubiy Xorazmda Banu Iroq sulolasiga mansub bo'lgan Muhammad ibn Iroq Xorazmshoh unvoni bilan boshqargan bo'lsa, al-Jurjoniya (Gurganchda) esa amir boshqarganligi haqida so'z yuritadi. Ammo, afsuski u zamondoshi bo'lgan bu amirning ismini keltirib o'tmagan<sup>43</sup>.

Bulardan tashqari, IX – X asrlar manbalaridagi Xorazm vohasi tarixiga oid ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Xorazmning o'zi ham bu davrda butun islom Sharqidagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan. Bu voqealar ayniqsa, mashhur arab tarixchisi Ibn al-Asirning “al-Komil fi-t-ta'rix” (“Mukammal tarix”) asarida juda yaxshi aks etgan<sup>44</sup>. Jumladan, 951-952 yillarda Shimoliy Xorazmda vaqtincha hokim bo'lmagan. Bu holat qancha vaqt davom etgani noma'lum bo'lib, faqat 965 yilda Gurganch amirining Xazar hoqoniga turkiylarga (bu yerda o'g'uzlarga) qarshi kurashda yordam bergani uchun hoqonlik aholisining islom diniga o'tganligi voqeasi keltirilib o'tiladi<sup>45</sup>. Tangalar tahliliga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, mazkur voqea Gurganch amiri Muhammad ibn Ali davriga to'g'ri keladi. Chunki, 967 yilda Gurganchda Muhammad ibn Ali

<sup>41</sup> Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик. МИТТ. Т.1. – С.178-181.

<sup>42</sup> Ал-Мақдиси. Ахсан ат-тақасим фи маърифат ал-акалим. МИТТ. Т.1. – С.185-189, 202-203, 206.

<sup>43</sup> Путешествие Ибн Фадлана: Волжский путь от Багдада до Булгара / Кат. выставки Гос. Эрмитаж. – М.: Изд. дом Марджани, 2016. – С. 23-24.

<sup>44</sup> Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории /Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – С.67-68, 74, 78-79, 94, 97, 115, 132, 141, 146, 161-162, 165, 174, 181-182.

<sup>45</sup> O'sha joyda: В.132-133, 141.

tomonidan zarb qilingan mis fals tangasi topilgan<sup>46</sup>.

Tadqiqotchi Sh. Ismoilov, Jurjoniy (Gurganch) shahri noibi hisoblangan Muhammad ibn Alining 967 yilda zarb qilgan tangasidan kelib chiqib, sulola taxtga aynan 967 yilda kelganligini ta'kidlagani holda<sup>47</sup>, turk tadqiqotchisi A. O'zbayraktar fikricha, Ma'muniylar Gurganchda hokimiyatga 959-982 yillar oralig'ida kelganlar<sup>48</sup>. Ammo, bizningcha Ma'muniylar Gurganchda hokimiyatga 967 yildan oldinroq kelganlar. Zero, yuqorida ta'kidlanganidek, Ibn al Asirning yozishicha 951-952 yillrda Xorazmda hokimiyatsizlik davri bo'lib, bizningcha bu holat Kat shahri Afrig'iylariga tegishli bo'lib, aynan bu holatdan Gurganchda Ma'muniylar foydalanib, hokimiyatga aynan shu yillarda kelgan bo'lsa kerak.

Endi Ma'muniylar sulolasi tarixidagi ikkinchi muammoli vaziyat bu, sulolaning qaysi etnik guruhga mansubligi masalasidir. Eron va Islom ensiklopediyalari (inglizcha nashrlarida) hamda musulmon sulolalari tarixiga oid kitoblarda Ma'muniylar kelib chiqishi jihatidan eroniy sulola bo'lganligi ta'kidlangani holda<sup>49</sup>, Ahmad Zaki Validiy To'g'on Ma'muniylarning turkiy baroniy urug'idan bo'lganligini taxmin qiladi. Ammo, u bu taxmini yetarlicha asoslab berolmagan<sup>50</sup>. S.P. Tolstov esa Ma'muniylarning kelib chiqishini kelgindi arab, xuroson, so'g'd (Buxoro) va turk elementlaridan tashkil topgan etnik guruh bo'lgan deb umumiy xulosa chiqargan<sup>51</sup>.

Sh.Ismoilovning Ma'muniylar sulolasi vakillarining tub xorazmliklar bo'lganligi xususidagi fikri ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki, faqat Ma'muniylar elchilarining qadimgi xorazmiy tilida yozishmalar olib borganliklaridan hamda somoniylarning Xorazmni boshqarish oson bo'lishi uchun hokimiyatni mahalliy vakillarga topshirganliklari masalalaridangina kelib chiqib, Ma'muniylarning mahalliy aholi vakillari bo'lgan degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bu borada A.O'zbayraktar Gardiziyning "Qadim zamonlardan Xorazm (Kot) va Gurganch aholisi o'rtasida dushmanlik mavjud bo'lgan..." degan so'zlarini keltirib o'tadiki, bu aynan arab bosqinidan keyin Gurganchning hech qachon Afrig'iylarga tobe bo'lmaganligini ko'rsatadi<sup>52</sup>. Mazkur tadqiqotda

---

<sup>46</sup> Рева Р., Калинин В., Атаходжаев А. Нумизматические дополнения к истории Хорезма X в. // Материалы XVI Всероссийской нумизматической конференции. – Санкт-Петербург: Издательство Государственного Эрмитажа. 2011. – С. 58- 59.

<sup>47</sup> Ismoilov Sh. Ma'muniylar sulolasining hokimiyatga kelishi va etnogenez masalasi // Ma'mun Science, I jild, №1. 2023. – B. 380.

<sup>48</sup> Bu haqda qarang: Ismoilov Sh. Ma'muniylar sulolasining hokimiyatga kelishi va etnogenez masalasi // Ma'mun Science, I jild, №1. 2023. – B. 380.

<sup>49</sup> Bosworth Clifford Edmund. The Islamic dynasties, a chronological and genealogical handbook. – Edinburgh: University Press, 1967. – 245 p.; yana qarang: БосвортК.Э.Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П. А. Грязневича. – М.: Наука, 1971. – 324 с.

<sup>50</sup> Ahmet Zeki Velidi Togan. Umumî Türk tarihine giriş. Cild I: en eski devirlerden 16. asra kadar. 3. Baskı. – İstanbul: Enderun Kitabevi, 1981. – S.189-190; yana uning: Hârizm // İslam Ansiklopedisi. C. V/1. –İstanbul, 1987. – S. 243.

<sup>51</sup> Толстов С.П. Бируни и его "Памятники минувших поколений" // Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения, I. Ташкент. АН УзбССР. 1957. – С.VII-XXI.

<sup>52</sup> Özbayraktar Aykut. Hârezm'de Me'mûnî devleti'nin kuruluşu. Ortaçağ araştırmaları dergisi, 6/2 (Aralık 2023). – S. 728.

Ma'muniylar sulolasining arab etnik qatlamiga mansubligi borasida xulosaga kelingan<sup>53</sup>.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “*Ma'muniylar davlatining taraqqiyoti va siyosiy boshqaruv tuzumi*” deb nomlanib, unda Ma'muniylar davlatining taraqqiyoti, sulola davrida mamlakatda amalga oshirilgan ishlar, davlatning siyosiy boshqaruv tizimi masalalari ochib berilgan.

Somoniylar davlati hukmronligining so'nggi davrlari turli siyosiy kuchlarning bu sulola merosi uchun kuchli kurashlarda o'tdi. Somoniylar davlati o'z umrini yashab bo'lganligi hammaga ma'lum edi. Zero, dastlab turkiy saroy gvardiya vakillari, ta'siri kuchayib ketgan hojib uj-hujjob yoki hojib ul-buzruklar o'zlarining harbiy kuchiga tayanib, rasman Somoniy hukmdorlarga bo'ysunsalarda, amalda to'liq mustaqil siyosat yuritish edilar. Ayniqsa dastlab somoniy hukmdorlarga tobe hududlarda boshlangan kurashlar, asta-sekin markaziy hokimiyatga yetib kela boshladi. Rasman Somoniylarga tobe sifatida boshqargan Ma'muniylar ham bu kurashlardan chetda qo'lmadi.

992 yil Somoniy Nuh ibn Nasr o'z poytaxti Buxorodan mahrum bo'lib, Amul (Chorjo'y)ga qochadi va shu yerdan turib istilochilarga qarshi kurashni uyushtirmoqchi bo'ladi. Xorazmning ikkala hokimi unga yordamga keladi. Nuh ularning ko'rsatgan yordami uchun Xurosondagi ikkita yirik mulkini taqdim qiladi: Xorazmshoh Abu Abdulloh Muhammadga Obivardni, Urganch amiri Ma'mun ibn Muhammadga Niso shahrini beradi<sup>54</sup>. V.V.Bartold ko'rsatib o'tganidek, Nuh Xurosonning itoatsiz hokimi Abu Aliga qarshi shunday ish qilgan edi. Shunisi qiziqki, Abu Ali Nisoni hech qanday qarshiliksiz Ma'munga topshiradi, lekin Abu Abdulloh yuborgan vakillarni Obivardga kiritishdan bosh tortadi.

Gardiziyning hikoya qilishicha, isyonkor Abu Ali 995 yil bahorida Nuhning vassali va lashkarboshisi sifatida harakat qilgan Sabukteginning lashkarlaridan yengilgach, dastlab Rayga qochadi, so'ngra Nishopurga qaytishga harakat qiladi. Sabukteginning o'g'li Mahmudning qo'liga tushadi va uncha katta bo'lmagan guruh bilan Xorazmga, ya'ni Ma'munning panohiga qochadi. Lekin uni Xorazmshohning askarlari ushlab oladilar va Katga keltiradilar. Bu voqea ikki Xorazm davlati o'rtasidagi kurashning uzil-kesil barham topishiga bahona bo'ladi. Ma'munning qo'shini Katni ishg'ol qilgan va ozod qilingan Abu Alini, Ma'mun Urganchda tantana bilan kutib olgan. Asir olingan so'nggi Afrig'iy Abu Abdulloh ham shu yerga keltirilgan. Ma'mun o'zining azaliy dushmanini qatl qilishga buyuradi. Xorazmning ikkala qismini o'z hokimiyati ostida birlashtirib, Xorazmshoh unvonini oladi. Shu tariqa 995 yilda Afrig'iylar sulolasi barham topib, Ma'muniylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Shu davrdan boshlab Gurganj (Ko'hna Urganch) Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lib kelgan<sup>55</sup>.

<sup>53</sup> Bosworth, C. Edmund (1984). “Āl-e Ma'mūn”. *Encyclopaedia Iranica*, Vol. I, Fasc. 7. C. Edmund Bosworth. pp. 762–764.

<sup>54</sup> Извлечения из «Китаб ал-Йамини» Абу Насра ал-Утби по Каирскому изданию 1286 г., с комментариями шейха ал-Манини // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI – XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. – М.-Л.: Наука, 1939. – С. 225.

<sup>55</sup> Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – С.87; унақаранг: Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. – М.: Наука, 1969. –С.637,647,649,666,687,706,712,713,715,751,782,789; бу haqda уана қаранг: Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории. – С.141-142; уанақаранг: Заходер

Ma'muriy jihatdan bu davlat viloyatlarga, viloyatlar esa, shahar va qishloqlarga ajratilib boshqarilgan. Ular davrida Xorazmda davlat boshqaruvining ancha takomillashgan tizimi vujudga keldi. Xorazmshoh davlatning oliy hukmdori, hokimi mutlaq hisoblangan. Gurganjda shoh saroyi qoshida markaziy boshqarma - devonxona tashkil etilib, uning tarkibida ziroat, savdo-tijorat, moliya, soliq ishlari, shahar va qishloqlarda osoyishtalikni saqlash, harbiy ishlar va boshqa davlat ahamiyatiga ega vazifalar bilan shug'ullanadigan mahkamalar bo'lgan. Saroyning eng yuqori lavozimlaridan biri vazirlik lavozimi bo'lib, u Xo'jayibuzruk (bosh xo'ja) unvoniga ega bo'lgan. U devonxona ishlariga javob bergan, katta safar paytida podsho nomidan davlatni idora qilgan<sup>56</sup>.

Ma'muniylar saroy boshqaruvi haqida ayniqsa, Abul Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Ma'sudiy" asarida keltirilib o'tilgan. Jumladan, yuqorida ta'kidlangan Xorazm bilan bog'liq voqealarda xo'jaibuzruk, hojib, sipohsolor, salor, sarxang, katxudo, dabir kabi mansablar, devoni vazir, devoni arz, bayt ul-mol kabi saroy idoralari eslatib o'tilgan<sup>57</sup>.

Ikkinchi bobning "*Ma'muniylar sulolasining o'g'uzlar va G'aznaviylar bilan munosabatlari. Ma'muniylar sulolasining tugatilishi*" deb nomlangan uchinchi paragrafida, Xorazmshoh – Ma'muniylarning qo'shni ko'chmanchilar dunyosi, ayniqsa o'g'uzlar bilan munosabatlari, Movarounnahr va Xurosonda kechgan siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va ularning G'aznaviylar davlati, xususan sulton Mahmud G'aznaviy bilan munosabati sabab va oqibatlarini masalasi tahlil qilingan. Bu bo'limda Ma'muniylarning o'g'uzlar bilan munosabatlari masalasi ilk bora ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zero, X-XI asrlarda Xorazm vohasining har taraflama ko'chmanchilar dunyosi bilan munosabatlari tarixi birinchi darajali masalalardan hisoblanganligini yozma manbalar ma'lumotlari ham, tarixshunoslik tadqiqotlari ham to'liq tasdiqlaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston hududlaridan topilgan numizmatik manbalar bu masalani yangicha asosda ko'rib chiqishni taqozo qilib, Ma'muniylar sulolasining kelib chiqishi hamda taxtga kelishi masalalarining ko'chmanchilar bilan uzviy bog'liq taraflari ham yo'q emasligini ko'rsatmoqda<sup>58</sup>.

Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasining siyosiy kuch-quvvatining oshishi, bir tarafdin Bag'dod xalifasini, ikkinchi tarafdin G'aznaviylar davlati hukmdori Mahmud G'aznaviyini tashvishga solardi. Dastlab Ma'muniylar hukmdori Ma'mun ibn Muhammad bilan Mahmud G'aznaviy o'rtasidagi munosabatlar yaxshi bo'lgan.

---

Б.Н. Еще одно раннее мусульманское известия о славянах и русах IX-X вв. - Известия Всесоюзного географического общества. Т. 75, Вып. 6. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1943. – С.36-38.

<sup>56</sup> Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. –С. 85-87; унақагаг: Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. – М.: Наука, 1969. –С.637,647,649,666,687,706,712,713,715,751,782,789/

<sup>57</sup> Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041) / Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. – М.: Наука, 1969. –С.792, 798, 817, 820, 822.

<sup>58</sup> Гончаров Е. Ю., Настич В.Н. Монеты сырдарьинских огузов IX в. // Тюркологический сборник. 2011-2012: Политическая и этнокультурная история тюркских народов и государств. М.: Наука, Вост. лит., 2013. С. 80-91; унақагаг: Гончаров Е., Настич В. Новооткрытый чекан государства Сырдарьинских огузов // Международная научная конференция "РАСМИР: Восточная нумизматика – 2011". – Киев, 2013. – С 26–30; Гончаров Е. Ю., Армарчук Е.А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме // Вестник института востоковедения РАН, 2 (12). – Москва, 2020. – С. 160-174.

Ma'mun ibn Muhammad Mahmud G'aznaviyning singlisi Kuljaga uylangan ham edi<sup>59</sup>.

Markaziy Osiyo va Xurosondagi voqealardan voqif bo'lgan Bag'dod xalifasi Qodir (991-1031) har tomonlama o'z qudratini namoyish qilayotgan Xorazmni zaiflashtirish uchun hamma narsaga tayyor edi. Bu vaqtga kelib Xurosonda qudratli davlat tuzgan sulton Mahmud G'aznaviy va uning kuyovi bo'lmish Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (Ma'mun uning singlisiga uylangan edi) o'rtasidagi ixtilofni chuqurlashtirish maqsadida xalifa Xorazm hukmdoriga maxsus elchi orqali qimmatbaho sovg'alar va "ayn ad-davla va zayn al-milla", ya'ni "davlat ko'rki va din bezagi" unvonini tasdiqlovchi yorliq yuboradi<sup>60</sup>.

Xorazmshohga ko'rsatilayotgan bunday hurmat-e'tibor sulton Mahmud uchun og'ir zarba bo'ldi. Natijada turli siyosiy fitnalar uyushtirishga usta bo'lgan sulton Mahmud hatti-harakatlari shunga olib keldiki, Xorazmshoh saroyida isyon ko'tarilib, 1017 yil 17 mart kuni Ma'mun ibn Ma'mun o'z lashkarboshilari tomonidan o'ldiriladi. Taxtga Ma'munning 18 yoshli jiyani Abu Xoris Muhammad o'tiradi. Biroq amalda barcha ishlarni qo'zg'olonchilar sardori Alp Tegin boshqaradi. Sulton Mahmud kuyovi uchun "o'ch olish"ga o'tlanadi<sup>61</sup>.

1017 yilning may oyida xorazmliklar va sulton Mahmud qo'shinlari Hozarasp yaqinida ro'para keladilar. Birinchi bo'lib hujumga o'tgan xorazmliklar mardona jang qildilar. Lekin yaxshi qurollangan, bir talay jangovor fillarga, katta urush tajribasiga ega bo'lgan G'azna lashkariga bas kelolmadilar. Xorazm qo'shinining bir qismi qirib tashlanib, qolganlari asir olinadi.

G'alaba qozongan sulton Mahmud Gurganchga kirib kelgach, qo'zg'olonchilardan qattiq o'ch oldi. Abu Xoris o'ldirildi. Uning o'rniga o'z noibi - Oltintoshni taxtga o'tqazgan Mahmud al-Ma'mun saroyidagi olimlarning bir qismini poytaxt G'aznaga olib ketadi<sup>62</sup>.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Ma'muniylar sulolasi davrida ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy jarayonlar**" deb nomlanib, uch paragrafdan iborat. "*Ma'muniylar sulolasi davrida ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar. Shaharlar taraqqiyoti*" deb nomlangan birinchi paragrafda, Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasining siyosiy va madaniy taraqqiyoti asosi bo'lgan iqtisodiy munosabatlar, shaharlar taraqqiyoti, Xorazm vohasining bu vaqtdagi tashqi iqtisodiy aloqalari ko'lami hamda yo'nalishlari masalalari tahlil qilingan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yozma manbalarda Xorazmshohlar – Ma'muniylar sulolasi davri shaharlari xususida ba'zi ma'lumotlar mavjud bo'lsada, mazkur davrda vohada shaharsozlik taraqqiyoti masalasi juda kam o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Jumladan, arxeologiya va yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm hududida shaharlar deb qabul qilingan jami 64 dan kam bo'lmagan arxeologik yodgorliklar qayd qilingan. Ammo ulardan faqat 32 tasi (bu yerda Ma'muniylar davri shaharlari nazarda tutilgan) haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot bor, shuningdek, bu shaharlarning 20

<sup>59</sup>Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда. –С.808.

<sup>60</sup>Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории. – С.141-142.

<sup>61</sup>Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории. – С.141-142.

<sup>62</sup>Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории. – С.141-142.

tasida unchalik katta bo'lmagan hajmdagi statsionar ishlar olib borilgan. Bular asosan, mamlakat chekkasidagi yodgorliklardir. Afsuski, markaziy Amudaryo bo'yi rayonlaridagi muhim shaharlar kam o'rganilgan; o'rta asr geograflari sanab o'tgan 24 shahardan faqat 20 tasi bu mualliflarning yozib qoldirgan qisqacha ma'lumotlari tufayligina ma'lumdir.

X asrga oid bo'lgan bir qancha tarixiy va arxeologik dalillar bu davrda Xorazm iqtisodiy jihatdan tez yuksalish jarayonini boshidan kechirgan, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Arab tarixchisi Al-Istaxriy (taxminan 930-933 yillarda yozgan) Xorazm shaharlar soni o'n uchta bo'lganligini qayd qilgan bo'lsa, "Hudud al-Olam"da 9 ta shahar nomi keltirilgan<sup>63</sup>.

Al-Maqdisiy taxminan 985 yilga kelib, Xorazm shaharlari o'ttiz ikkita bo'lganligini yozadi<sup>64</sup>.

Bu shaharlarning paydo bo'lishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishi bunga kuchli turtki bo'lgan. Bunga shaharlar topografiyasini o'rganish davomida ham ishonch hosil qilish mumkin.

Tadqiqotning mazkur uchinchi bobining ikkinchi paragrafi "*Tashqi iqtisodiy aloqalar*" deb nomlanib, bu bo'limda Xorazm vohasining Ma'muniylar sulolasi davridagi tashqi savdo aloqalari, Buyuk Ipak yo'lining "Shimoliy" va "Janubiy" tarmoqlari orqali olib borilgan savdo munosabatlarining ko'lami hamda mahsulotlar turlari masalalariga e'tibor qaratilgan.

Xorazmning X asr oxiri va XI asr boshlarida Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i orqali savdo munosabatlari masalasi tadqiqotlarda nisbatan yaxshi aks etgan bo'lsada bu masalaga oid alohida yozma manba yoki tarixiy tadqiqotlar mavjud emas. Shu jihatdan olganda, bu o'rinda eng avvalo yozma manbalar ma'lumotlarini tahlil qilish lozim. Jumladan, o'z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar jumlasiga, Ibn Fadlan<sup>65</sup>, Ibn Havkal<sup>66</sup>, Al-Istaxriy<sup>67</sup>, Al-Maqdisiy<sup>68</sup>, Ibn al-Asir<sup>69</sup>, Yoqut al-Hamaviy<sup>70</sup> asarlarini kiritish mumkinki, ularning asarlarida savdo yo'llari hamda savdo shaharlari xususida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

<sup>63</sup> МИТТ, т.1. – С.178; 216-217.

<sup>64</sup> Ал-Макдиси, текст. – С.286-289; МИТТ, Т.1. – С.186-188.

<sup>65</sup> Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Перевод и комментарии А.П.Ковалевского. – М.-Л.: Наука, 1939. – 256 с.; Ибн Фадлан. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.155-164.

<sup>66</sup> Абу-л-Касым ибн Хаукаль. Книга путей и стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.181-184.

<sup>67</sup> Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.178-181.

<sup>68</sup> Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.185-189, 202-203, 206.

<sup>69</sup> Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.361-362.

<sup>70</sup> Иакут ал-Хамави. Му'жам ал-булдан. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.409-438.

IX-XIII asrlar fors tilida yozilgan manbalar ustida to‘xtaladigan bo‘lsa, ular ichida eng muhimlari – Mahmud Gardiziy<sup>71</sup> hamda Abulfazl Bayhakiy<sup>72</sup> kabi mualliflar hisoblanadi. Bu asarlarda Xorazm vohasida X – XI asrlarda kechgan siyosiy voqealar bilan bir qatorda iqtisodiy hayot va savdo munosabatlari to‘g‘risida ma’lumotlar ham o‘z aksini topgan.

XI asr boshida Xorazm davlati nafaqat madaniyat sohasida balki iqtisodiyot rivojida ham salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu davrda Xorazm vohasi Sharq musulmon sivilizatsiyasining Yevrosiyo dashtlaridagi tayanchi sifatida, turkiy ko‘chmanchilar dunyosini slavyan – bulg‘orlar va xazarlar bilan bog‘lovchi bir xalqa bo‘lgan. Umuman, X – XI asrlarda O‘rta Osiyo tashqi savdosidagi yetakchilik Xorazmga tegishli bo‘lib, butun O‘rta Osiyo savdosi amaliy jihatdan xorazmlik savdogarlar qo‘liga o‘tgan edi. Ular gazlamalar va qurol-yarog‘lar, chetdan mo‘ynalar, qullar va boshqalar olib kelishgan. Xorazm savdogarlarining savdo aloqalari Xazariya, Volga Bolgariya, Kiyev Rusi, Skandinaviya, Xitoy, Hindiston, Xuroson, Gurgan va Sharqiy Yevropa, Orolbo‘yi, Dashti Qipchoq va Yettisuv ko‘chmanchilari bilan olib borilgan<sup>73</sup>.

Umuman, barcha arab va fors tilidagi manbalarda poytaxti Gurganch bo‘lgan Shimoliy Xorazm X – XI asrlarda Sharqiy Yevropa va Yevroosiyo dashtlari ko‘chmanchilari dunyosi bilan uzviy iqtisodiy aloqalarda bo‘lganligi ta’kidlanadi. Gurganch shahri esa, nafaqat Xorazmda balki, Sharq mamlakatlari shaharlari ichida ham juda yirik savdo markazi bo‘lganligi ma’lum<sup>74</sup>. Shu bilan birga, Xazar va Volga Bulg‘oriyasi bilan bo‘lgan savdoda Gurganj yana Iroq va Erondan Sharqiy Yevropaga boruvchi eng yaqin yo‘l ustida joylashgan edi.

X asr oxiriga kelib, Xorazmda Gurganchdan tashqari, Mizdahqon, Jigarband, Jit, Sadvar, Ardaxushmisan, Kardaranxos, Darxos, Xiva, Puljoy (Git), Bug‘roxon (Madminiya) kabi yirik shaharlar shakllanib, ularning deyarli barchasida yirik bozorlar bo‘lgan.

Ma’muniylar davrida Xorazmning Shimoliy tarmoq orqali olib borgan karvon savdosida Volga daryosining o‘rta va yuqori oqimlarida joylashgan Xazarlar va Bulg‘orlar bilan bo‘lgan mol ayirboshlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega edi. Bu savdo aloqalarining qay darajada bo‘lganligi, X asr 60-yillaridan boshlangan Xazar – o‘g‘uz, Xazar – Kiyev Rusi munosabatlarida Xorazmning eng asosiy siyosiy o‘yinchi sifatida, bu jarayonlarda faol bo‘lganligi yaqqol ko‘rsatadi.

Jumladan, 965 yilda rus knyazi Svyatoslavning Belaya Veja (Sarkel) shahri yaqinida Xazarlarning asosiy qo‘shinini tor-mor etib, bu davlatni tugatgan davrda ham, Xorazm Xazar hoqonligining, endilikda “merosxo‘ri” sifatida ish yuritib, o‘z kurashini to‘xtatmagan va hech bo‘lmaganda, Quyi Volganing eng muhim savdo markazlarini qo‘lga kiritishga intilgan.

<sup>71</sup> Абу Саъид Гардизи. Зайн ал-ахбор. Украшения известий. С персидского А.К.Арендса. – Т.: Фан, 1961. – 146 с.; Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.228-229.

<sup>72</sup> Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с.

<sup>73</sup> Мухаммадиев М.Э. Средняя Азия в торговле VI-XII века. // Norwegian Journal of development of the International Science, 2018. №17. – С.31.

<sup>74</sup> Гардизи. Китаб зайн ал-ахбар. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.228-229; Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. –М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с.; Йакут ал-Хамиви. Му’жам ал-булдан. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С.409-438.

Gurganch amirlari, hatto ba'zida bunga muvaffaq ham bo'lganlarki, Maqdisiy bu haqda ba'zan Xazariyaning shaharlarini Jurjoniya hokimi egallab olganligini ta'kidlaydi<sup>75</sup>.

Rossiyalik tadqiqotchilar I.Yu.Pastushenko va K.A.Rudenkolarning Volga bo'yi Bolgariya hududidan topilgan dirham xazinalari haqidagi bir qator maqolalari chop etildi. Ular Volga Bolgariyasining shakllanishida savdo-sotiqning rolini ta'kidlab, davlatning gullab-yashnashini X asrda Volga yo'lining mavjudligi bilan izohlab, XI asr boshlarida bu savdo yo'li o'rnini Transoksaniya – Xorazm – Qozoq cho'li – Volgabo'yi va Kama viloyati yo'li egalladi va asosiy yo'lga aylandi<sup>76</sup>.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi *“Ma'muniylar sulolasi davrida madaniy jarayonlar”* deb nomlanib, bu paragrafda Xorazmning Ma'muniylar sulolasi boshqaruvi davrida nafaqat jahon madaniy taraqqiyotidagi o'rniga, balki, ma'naviy-diniy sohada, islom dinining qo'shni hududlarga tarqalishida ham Xorazm vohasining o'rni masalasi ochib berilgan.

O'sha 1004 yilni shartli ravishda Xorazmdagi Ma'muniylar ilmiy to'garagining yoki hozirgi ibora bilan aytganda Ma'mun akademiyasining to'la shakllangan davri deyish mumkin. Ma'mun akademiyasida to'plangan olimlar ro'yxati bizgacha yetib kelmagan va ularning tarkibi haqida biz faqat taxminlar qilishimiz mumkin. Lekin Abu Mansur as-Saolibiyning guvohligicha, Gurganchda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan.

Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'mun saroyidagi ilmiy to'garakning akademiya deyilishi masalasiga kelsak, bunga o'rta asr mualliflaridan Abu-l-Xasan Bayhaqiy (1105-1169) va Nizomiy Aruziy Samarqandiy (1090-1180) guvohlik berganlar<sup>77</sup>. Xususan, Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining *“Chahor maqola”* nomli asarida bu haqda quyidagicha xabar beradi: *“Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'munning bir vaziri bor edi, oti Abu Husayn Ahmad Muhammad as-Suhayli edi, falsafiy tafakkur, olijanob qalbgaga ega va ma'rifatparvar edi. Xorazmshohning o'zi ham falsafaga mayli ko'p va zukkolarga muravvatli edi. Ana shular tufayli saroyda ko'plab faylasuflar va ulamolar to'plandi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masixiy, Abu-l-Xayr Hammor, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr ibn Iroq... Ularning hammasi shu xizmatda hayotiy ehtiyojlarining hammasi bilan to'liq ta'minlangan edi, o'zaro do'st edilar, suhbatlar va yozishmalar bilan orom olardilar”*. Bayhaqiy ham shu so'zlarni deyarli takrorlaydi<sup>78</sup>.

<sup>75</sup> Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.209.

<sup>76</sup> Валеев Р.М. Торговля Волжской Булгарии с северной и западной Европой в домонгольский период (IX – начало XIII века) // Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 10, выпуск 3: Археология и этнография. – С. 180 (175-182).

<sup>77</sup> Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы: [пер. с персидского] / Предисл. А. Н. Болдырева, с. 3-22; примеч. З. Н. Ворожейкиной. – Москва: Изд-во вост. лит., 1963. – 173 с.

<sup>78</sup> Абу-л-файз Байхаки. История Маъсуда. – М.; Изд-во А.Х.Арендса. 1969. – 1009 с. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы: [пер. с персидского] / Предисл. А. Н. Болдырева, с. 3-22; примеч. З. Н. Ворожейкиной. – Москва: Изд-во вост. лит., 1963. – 173 с.

Ushbu ikki tarixchi “akademiya” iborasini ishlatmagan bo‘lsalar ham Xorazmshoh saroyida olimlar guruhining to‘planganligini tan olganliklari – katta ahamiyatga egadir. XX asrda qator olimlar Xorazmshoh Ma‘mun saroyidagi ilmiy to‘garakni “akademiya” deb atadi. Ular orasida K.Brokkelman va S.P.Tolstovlarni eslatish mumkin. Yu.N.Zavadovskiy esa o‘zining “Abu Ali ibn Sina” degan kitobining uchinchi bobini “Pereezd v Xorezm i uchastie v “Akademii” Abu-l-Abbasa bin Ma‘muna (“Xorazmga ko‘chish va Abu-l-Abbos ibn Ma‘munning akademiyasida ishtirok etish”) deb atadi. Demak, Ma‘mun akademiyasi bo‘lganligi haqida shubha bo‘lishi mumkin emas<sup>79</sup>.

Gurganch aynan shu davrda gullab yashnagan. Jumladan, Ko‘hna Urganchdan topilgan mis taxtachdagi yozuvlarga ko‘ra, 1010-1013 yillar oralig‘ida Ma‘muniylar minora qurdirgan<sup>80</sup>. Muqaddasiy “Gurganch kun sayin kengayib borayapti, Xo‘jay darvozasi oldida al-Ma‘mun tomonidan qurilgan saroy qad ko‘targan. Bu saroy darvozalariga teng keladigani butun Xurosonda yo‘q. Uning oldiga al-Ma‘munning o‘g‘li Ali saroy qurdirgan. Saroy oldida Buxorodagidek maydon bor”,- deb yozadi<sup>81</sup>.

Ali ibn Ma‘mun Gurganchda masjidlar, madrasalar, kasalxonalar qurdirgan. Shahar ko‘chalarida tozalik yuqori darajada bo‘lgan. Zero, o‘sha davrlarda bunga jiddiy e‘tibor bilan qaralgan. Yo‘llarga silliqlangan toshlarning yotqizilishi, shahar hayotining a‘lo darajada tashkil qilinganligi X-XI asr shaharlarining alohida tartibli bo‘lishini ta‘minlagan. Demak, Ma‘mun ibn Ma‘mun akademiyasi poydevori uning akasi Ali ibn Ma‘mun davridayoq qo‘yilgan edi<sup>82</sup>.

Xorazmshoh Ma‘mun ibn Ma‘mun akademiyasi (“Majlisi ulamo”)da Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masixiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Said ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Ahmad Muhammad as-Saxriy, Zaynuddin Jurjoniy, Abulkarim Zirg‘aliy, Abu Abdulloh al-Vazir, Abul Xasan Ma‘mun, Abu Muhammad Xorazmiy, Abduavval ibn Abdusamadiy, Abu Azoq ibn Baxnom, al-Kosiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Abdulla an-Naysaburiy al-Xorazmiy, al-Xamdakiy, Ixmad Mas‘uriy, Abu Muhammad Rakkoshiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abubakr Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suxayl al-Xorazmiy va boshqa olimlar matematika, astronomiya, astrologiya, ruhiyot, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta‘lim-tarbiya, kimyo, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika singari turli fan

<sup>79</sup>Zavadovskiy Yu. N. Abu Ali ibn Sina (980-1037): жизнь и творчество: (по таджикско-персидским и арабским рукописным источникам) / Ю. Н. Заводовский; Отв. ред. и авт. предисл. Г. Ашуров. – Душанбе: Ирфон, 1980. – С.212; унақаранг: Романова Б.Р. Педагогические мысли хорезмских поэтов-просветителей конца XIX-начала XX веков. /Автореферат диссертации канд. пед. наук. –Т., 1978. Б.20.

<sup>80</sup> Катановъ Н. Хорезмийская свинцовая плита, найденная въ развалинахъ Куны-Ургенча // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. 1902. Т. 14. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1902. – С.15-17.

<sup>81</sup> Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1.Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука,1939. – С.188; Романова Б.Р. Педагогические мысли хорезмских поэтов-просветителей конца XIX-начала XX веков. /Автореферат диссертации канд. пед. наук. –Т., 1978. 20-бет.

<sup>82</sup>Иброҳимов А. Маъмун академияси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2005. – Б. 39; уна қаранг: Байджанов И.С. Хоразм Маъмун академияси ўтмиши ва ҳозир. Хоразм Маъмун академияси ташкил топганлигининг 1000 йиллигига боғишланади. – Урганч, «Издательские решения», 2016. – Б.94.

sohalari bilan shug'ullanib, bu ilmlarning kelajakdagi taraqqiyotiga zamin hozirladilar.

## XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy **xulosalar**ga kelindi:

1. Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixiga oid yozma manbalar juda kam bo'lib, mavjud manbalar ma'lumotlari ham bir – biriga zid va qarama – qarshidir. Shu jihatdan olganda, Ma'muniylar sulolasi tarixi tadqiqotchilari tadqiqot doirasi ancha cheklanib, bu sulola tarixini to'la – to'kis ochib berish imkoniyatini bermaydi.

2. Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixini o'rganish jarayonidagi yana bir muhim jihat, xorij qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan hamda Xorazmshoh-Ma'muniylar davlati tarixi haqida batafsilroq ma'lumotlar beruvchi manbalar bir tarafdin to'liq o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi uchun, ikkinchi tarafdin mazkur manbalardan foydalanilib amalga oshirilgan tadqiqotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari natijasida muammoga biryozqlama yondashuvga hamda biri ikkinchisini takrorlovchi ilmiy adabiyotlarning yaratilishiga olib keldi.

3. Hozirgacha o'rganilayotgan davr tarixini tangashunoslik jihatidan yoritib beruvchi yaxlit bir ilmiy ish amalga oshirilmagan. Bu davr tarixi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi qo'lyozma asarlar X asrlarda yaratilgan bo'lib, ular ham asosan hududning siyosiy tarixini o'zida aks ettiradi. Ularda keltirilgan ma'lumotlar va bugungi kungacha yetib kelgan Xorazmshohlar davri tangalarini qiyosiy tahlil qilish orqali bu davr tarixini yanada chuqurroq o'rganish mumkin.

4. XXI asr boshlaridan Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasi tarixiga qiziqish bir qadar ortadi va dastlabki ilmiy xulosalar beruvchi kichik hajmli maqola, tezislar shaklida asarlar paydo bo'la boshlaydi. Bunday ilmiy va arxeologik tadqiqotlar natijasi o'laroq hozirgi kungacha mavzuga oid ilmiy xulosalarga ega tadqiqotlar amalga oshirilganini yoki doktorlik dissertatsiyalari tayyorlanganligini (Turkiyada) kuzatish mumkin. Biroq, shuni aytib o'tish kerakki, mazkur ishlar yaxlit holda bo'lmagani bois, ular mavzuni to'liq ochib bera olmaydi.

5. Xorazmda Ma'muniylar sulolasining hokimiyatga kelishi hozirda mavjud manbalar ma'lumotlari asosida X asrning 50-yillariga to'g'ri kelishini taxmin qilish mumkin. Ma'muniylar sulolasining taxtga kelishi muammosini ochib berishda, bu davlatning Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir xalqlari bilan ham yaqin siyosiy va savdo munosabatlari masalasini o'rganish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, birinchidan, Ma'muniylar sulolasi siyosiy tarixining ham ko'pgina qirralarini ochib beradi.

6. Shu paytgacha Ma'muniylar sulolasining ilk vakili sifatida, 992-997 yillarda hukmronlik qilgan Ma'mun I ibn Muhammad ko'rsatib kelingan bo'lsa, tadqiqotlar davomida 959-967-yillar orasida Jurjoniya amiri sifatida hukmronlik qilgan Muhammad ibn Ali bu sulolaning hukmronligini boshlab berganligi aniqlangan hamda Ma'muniylar davlatining hukmronligi davri chegaralari sifatida X asr 50-yillari – XI asr boshlarini belgilash mumkin.

7. X – XI asr boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan Ma'muniy

Xorazmshohlar sulolasi hukmdorlari o'zlarining tangalarini zarb qildirganlar. Ammo, shunday bo'lsada, bu hukmdorlar davrida Xorazm davlatining siyosiy mavqei qanday bo'lganligini masalasi haligacha o'z yechimini topmagan. Bu holat, shu davr siyosiy jarayonlarini aks ettiruvchi turli tillardagi yozma manbalar ma'lumotlarini ilmiy muomalaga jalb qilib, numizmatik manbalar bilan qiyosiy tahlil asosida yakuniy xulosalarga kelish lozimligini ko'rsatadi.

8. Ma'muniylar davlatining taraqqiyoti va siyosiy boshqaruv tizimi yozma manbalarda deyarli aks etmagan. Ammo, bu davrdagi davlatlar: Somoniylar va G'aznaviylar davlatining boshqaruv tizimi hukmdorlik unvonlari hamda saroy mansabdorlari haqida ma'lumotlar yetarli darajada yetib kelgan. Shu jihatdan olganda shu davrdagi ko'pgina davlatlarning, jumladan, G'aznaviylar, Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatlarining o'z boshqaruv tizimi andozasini Somoniylardan olganligini hisobga olib, Xorazmshohlar – Ma'muniylar sulolasi ham davlat boshqaruvi tizimi ba'zi farqli jihatlarni hisobga olmaganda aynan Somoniylar yoki G'aznaviylar davlatidagi kabi bo'lgan degan xulosa chiqarish mumkin.

9. Xorazmshoh – Ma'muniylar davlatining qo'shni davlatlar bilan savdo munosabatlarida poytaxt Gurganch shahri muhim o'rin egallagan. Umuman olganda, arxeologik manbalar Xorazm vohasining Ma'muniylar sulolasi davrida Buyuk Ipak yo'lidagi savdo aloqalaridagi o'rnini yaqqol ko'rsatib, bu aloqalarda muhim o'rin tutgan shaharlari hamda savdo munosabatlari olib borilgan savdo yo'llari xususida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

10. Qisqa muddat hukmronlik qilgan bo'lsada, Ma'muniylar sulolasi davlat sifatida siyosiy jihatdan nihoyatda faol bo'lib, bu sulola vakillari Sharqiy Yevropa hududlaridagi ko'chmanchi qabilalar bilan, Rus knyazliklari bilan, Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati bilan keng siyosiy aloqada bo'lganligini yozma manbalar ma'lumotlari ham, arxeologik va numizmatik manbalar ham to'liq tasdiqlaydi.

11. Xorazm vohasidan tashqari uzoq hududlardan ham arxeologik va numizmatik manbalarining topilishi, Xorazmning X-XI asr boshlarida "Buyuk Ipak yo'li" tarmoqlari bo'ylab Sharqiy Yevropadan Yettisuv va Xitoygacha, Skandinaviya yarim orolidan Damashqgacha bo'lgan hududlarda juda faol savdo munosabatlari olib borganligini yaqqol ko'rsatadi.

12. Fan olamida alohida o'rin olgan Xorazm Ma'mun akademiyasi va u yerda ijod qilgan allomalarning boy ilmiy merosi, mazkur ilmiy dargohda fanning turli sohalarida qilingan kashfiyotlar va yozilgan bebaho asarlar jahon ilm-fani rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur ilmiy dargoh avvalo Uyg'onish davrida Xorazmda yuz bergan iqtisodiy-siyosiy va madaniy yuksalishning qonuniy natijasi bo'ldi. Qolaversa, Ma'muniy-Xorazmshohlar mamlakatda ilm ma'rifatning rivoji uchun barcha sharoitlar yaratdi, olimlarga moddiy yordam ko'rsatdilar.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

Mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha talabalar uchun O'zbekiston tarixi, arxeologiya, numizmatika fanlarini siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot masalalari tarixiga oid ma'lumotlar bilan boyitish, eng so'nggi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa xalqlarining ko'p jihatdan umumiy bo'lgan tarixiga oid ilmiy muammolarning, ayniqsa, X – XI asr boshlari savdo-iqtisodiy munosabatlari masalasi bo'yicha umumiy muammo mavjudligi ma'lum. Bugungi kunda ularni hal qilish Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari tarixchi olimlarining integratsiyasini talab etadi. Shu bois mazkur mavzuga oid konferensiyalar o'tkazib turish hamda konferensiya materiallari asosida to'plamlar chop qilish, ilmiy-ommabop adabiyotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Tarix fanlari sohasida ham zamonaviy texnologiyalar taraqqiyotini hisobga olib, Markaziy Osiyo davlatlari tarixchi olimlari hamkorligida, Ma'muniylar sulolasi tarixini to'liq ochib berishga qaratilgan turli mavzulardagi internet saytlari tashkil etish hamda shu davrlar tarixini o'zida to'liq aks ettirgan virtual muzey yoki virtual fondlar yaratish, 3D formatdagi shaharlar, karvonsaroylar aks etgan dasturlar, sun'iy intellekt yordamida shu davrlar virtual turmush tarzini aks ettirish bo'yicha ilmiy loyihani amalga oshirish tavsiya etiladi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ХОРЕЗМСКАЯ АКАДЕМИЯ МАЪМУНА**

**АБДРИМОВ ЗАРИБОЙ ЭРКИНОВИЧ**

**ПОЛИТИЧЕСКОЕ, СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ И  
КУЛЬТУРНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ХОРЕЗМА В ПЕРИОД ДИНАСТИИ  
ХОРЕЗМШАХОВ-МАЪМУНИДОВ**

**07.00.01 - История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за В.№024.2.PhD/Tar 1874

Диссертация выполнена в Хорезмской Академии Маъмуна

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на Информационно-образовательном портале "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Абдалов Умидбек Матниязович,  
доктор философии по историческим наукам  
(PhD), доцент

**Официальные оппоненты:** Сулайманов Саламат Арепбаевич, доктор  
исторических наук (DSc), профессор  
Машарипов Кудрат Юлдашевич,  
доктор исторических наук (DSc), доцент.

**Ведущая организация:** Нукусский государственный педагогический  
институт имени Ажинияза.

Защита диссертации состоится "11" октября 2025 года в 15:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г.Нукус, ул. Ч. Абдилова № 1). Тел.: (99861)223-60-78; e-mail: karsu infb@edu.uz).

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за № 371) (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч.Абдилова, №1, Исторический факультет Каракалпакского государственного университета. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49).

Автореферат диссертации разослан "23" 09 2025 года.  
(Реестр протокола рассылки № Т от "14" 23.09 2025 года).



*Карлыбаев*  
**М.А.Карлыбаев**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
исторических наук (DSc), профессор

*Оттегенов*  
**Х.М.Оттегенов**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
философии по историческим наукам  
(PhD), доцент

*Кошанов*  
**Б.А.Кошанов**  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
учёных степеней, доктор исторических  
наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность темы.** В мировой истории государственности народов мира все большее значение приобретает изучение истории тех или иных династий на новых основаниях. Ведь среди этих династий есть и такие, которые оставили свой след не только в политическом развитии государств, но и в культурном развитии народов мира. В частности, общеизвестной реальностью в мировом масштабе является значение Хорезмской Академии Маъмуна – “Дорул Хикма ва Улама”, основанной правившей в конце X – начале XI веков династией Хорезмшахов – Маъмунидов. В этом плане изучение истории этой династии приобретает актуальное значение для полного раскрытия не только истории государственности, но и начальных периодов, условий и значения культурных процессов первого Восточного возрождения.

Во многих научно – исследовательских учреждениях мира ведутся научные исследования по выявлению причин, условий прихода на престол династии Хорезмшахов - Маъмуни, сыгравшей важную роль в культурном развитии народов мира, по вопросам экономического развития, являющегося основным фактором этого культурного прогресса, и, наконец, по определению особого исторического места этой династии в развитии узбекской государственности. Вместе с тем проводится ряд работ, направленных на выявление деятельности правителей династии Маъмуни, политических и социально-экономических процессов, происходивших в оазисе в период правления этой династии.

В истории узбекской государственности с древнейших времен до середины XIII века государством правили династии, правившие именем хорезмшахов, и с научной точки зрения в истории известны четыре такие династии. Среди них: Афригиды-Вазамариды (305-995 гг.); Маъмуниды (995-1017 гг.); Алтыншахи (1017-1034) и, наконец, Ануштегины (1077-1231)<sup>1</sup>. Сведения письменных источников полностью подтверждают, что во времена династии Хорезмшахов-Маъмунидов в Хорезмском оазисе бурно развивались не только наука и культура, но и экономическая сфера. Однако в этих источниках крайне мало информации о политических событиях, происходящих в период правления представителей этой династии, а также о возникновении и необходимости восшествия на престол представителей этой династии в целом. С этой точки зрения целесообразно привлекать к исследованию археологические и особенно нумизматические источники из-за недостатка информации из письменных источников.

Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года RFN№4947 «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах»<sup>2</sup>, Данная

<sup>1</sup>Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2005-йил, 491-бет.

